# 2024– yilning yanvar–mart oylarida Buxoro viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2024– yilning yanvar – mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 4 173,7 mlrd. so‘mni yoki 2023– yilning mos davriga nisbatan 103,3 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 4 104,7 mlrd. so‘mni (103,7 %), o‘rmon xo‘jaligi – 48,0 mlrd. so‘mni (103,8 %), baliqchilik xo‘jaligi – 21,0 mlrd. so‘mni (54,3 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Buxoro viloyatining ulushi 9,2 % ni tashkil etdi.



## Buxoro viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘sish sur’ati, % da




2024- yilning yanvar – mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda 103,3 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 103,7 % ni, o‘rmon xo‘jaligi – 103,8 % ni, baliqchilik xo‘jaligi – 54,3 % ni tashkil qildi.

***Ma'lumot uchun:***

*Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024– yilning yanvar- mart oylarida tarmoqning ijobiy o'sish sur'atiga asosan quyidagi mahsulotlarning 2023 – yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'ati qayd etilganligi orqali erishildi.*

- ✓ *Qirqib olingan jun* — *108,0 %*
- ✓ *Olingan tuxum* — *106,5 %*
- ✓ *Qorako'l teri* — *105,0 %*
- ✓ *Go'sht tirik vaznda* — *103,4 %*
- ✓ *Sog'ib olingan sut* — *103,3 %*

## Buxoro viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi




Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar
98,3 %

O'rmon xo'jaligi
1,2 %

Baliqchilik xo'jaligi
0,5 %

2024- yilning yanvar – mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining 98,3 % i - dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlarning (2023- yilning yanvar – mart oylarida 97,9 %), 1,2 % i - o'rmon xo'jaligi (1,1 %), 0,5 % i baliqchilik xo'jaligi (1,0 %) hissasiga to'g'ri keldi.

## Hududlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi




2024– yilning yanvar– mart oylarida, tuman va shaharlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Jondor ( 539,0 mlrd. so‘m) va Buxoro ( 512,0 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kogon shahri (14,0 mlrd. so‘m), Buxoro shahri (73,0 mlrd. so‘m) va Qorovulbozor tumani (135,0 mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Viloyat ko‘rsatkichidan (103,3 %) yuqori o‘sish sur’atlari Qorovulbozor (109,9 %), Buxoro (105,2 %), Jondor (104,5 %), Vobkent (103,9 %) va Kogon (103,9 %) tumanlarida kuzatildi. Romitan (102,9 %), Peshku (102,9 %), Olot (102,4 %), Qorako‘l (102,1 %), Kogon shahar (101,7 %), Shofirkon (101,3 %), G‘ijduvon (100,9 %), va Buxoro shaharda (100,8 %) esa aksincha o‘sish sur’atlari pastligi kuzatildi.

## Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining o‘sish sur’ati




## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, % da



Hududlar bo‘yicha tahlil qilinganda eng yuqori ulush Jondor (12,9 %), Buxoro (12,3 %) va Shofirkon (10,2 %) tumanlariga kuzatildi. Aksincha kam ulushga ega hududlar Kogon shahar (0,3 %), Buxoro shahar (1,8 %), Qorovulbozor (3,2 %) va Olot (7,6 %) tumanlariga kuzatildi.

## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

2024– yilning yanvar– mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 4 038,7 mlrd. so‘mni yoki 2023– yilning mos davriga nisbatan 103,7 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 278,0 mlrd. so‘mni (106,2 %), chorvachilik mahsulotlari – 3 760,8 mlrd. so‘mni (103,5 %) tashkil qildi.



**Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi, (% da)**







**6,9 %**

**Dehqonchilik mahsulotlari**

**93,1 %**

**Chorvachilik mahsulotlari**

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, (% da)




| Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda yuqori ulushga ega hududlar | Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda yuqori ulushga ega hududlar |
|---|---|
| 01 Qorovulbozor | Kogon sh. 01 |
| 02 Romitan | Vobkent 02 |
| 03 Buxoro | Shofirkon 03 |



## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 84,9 % i – dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 9,5 % i – fermer xo‘jaliklariga, 5,6 % i – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ulushining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, eng yuqori ko‘rsatkichlar barcha hududlarda dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



***Ma’lumot uchun:***

*Asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining ulushi quyidagicha:*

- ✓ *Go‘sht (tirik vaznda) — 88,4 %*
- ✓ *Sog‘ib olingan sut — 90,7 %*
- ✓ *Olingan Tuxum — 43,6 %*
- ✓ *Sabzavotlar — 21,1 %*

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi, (% da)




2024–yilning yanvar– mart oylari yakuniga ko‘ra ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Jondor tumanida (19,3 %), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Shofirkon tumanida (95,1 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Qorovulbozor (36,3 %) tumanida qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Buxoro shaharda (2,4 %), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng kam ulushi Qorovulbozor tumanida (45,4 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Shofirkon tumanlarida (0,3 %) qayd etildi.



# Dehqonchilik

2024– yilning yanvar – mart oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 278,0 mlrd. so‘mni yoki 2023– yilning mos davriga nisbatan 106,2 % ni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 6,9 % ni tashkil qildi.

## Sabzavotlar

**Hajmi, tonna**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**







2024– yilning yanvar – mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 7,8 ming t. sabzavotlar (2023– yilning yanvar – martiga nisbatan 8,5 % ga ko‘p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlili, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 21,1 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatdi.



# Hududlar bo‘yicha sabzavotlar yetishtirish




| Yuqori ulushga ega hududlar | | Past ulushga ega hududlar | |
|---|---|---|---|
| Romitan tumani | **26,9 %** | Vobkent tumani | **1,3 %** |
| Buxoro tumani | **24,4 %** | Peshku tumani | **1,3 %** |
| Qorovulbozor tumani | **19,2 %** | Shofirkon tumani | **2,6 %** |
| G‘ijduvon tumani | **6,4 %** | Kogon tumani | **2,6** % |



# Chorvachilik

2024– yilning yanvar – mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 3 760,8 mlrd. so‘mni yoki 2023– yilning mos davriga nisbatan 103,5 % ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 93,1 % ni tashkil etdi.




Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste’mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.

2024– yilning yanvar – mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 52,7 ming t. go‘sht (2023– yilning yanvar – martiga nisbatan 3,4 % ga ko‘p), 210,2 ming t. sut (3,3 % ga ko‘p), 89,9 mln. dona tuxum (6,5 % ga ko‘p), 135,0 tonna jun (8,0 % ga ko‘p), 167,8 ming dona qorako‘l teri (5,0 % ga ko‘p) yetishtirildi va 0,8 ming t. baliq (46,6 % ga kam) ovlandi.

# Go‘sht *(tirik vaznda)*

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**









2024- yilning yanvar - mart oylarida go‘sht yetishtirish to‘g‘risidagi ma’lumotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil natijalariga asosan, go‘sht yetishtirishning eng katta hajmi 46,6 ming t. yoki umumiy yetishtirish hajmidan 88,5 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida qayd etilganligini ta’kidlash lozim.

2023- yilning mos davri bilan solishtirganda, 2024- yilda dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 0,4 %, fermer xo‘jaliklarda 13,6 % va qishloq xo‘jaligini amalga oshiruvchi tashkilotlarga 67,5 % ga o‘sish kuzatildi.



# Hududlar bo‘yicha go‘sht (tirik vaznda) yetishtirish






| Yuqori ulushga ega hududlar | | Past ulushga ega hududlar | |
|---|---|---|---|
| Jondor tumani | 12,6 % | Kogon shahri | 0,6 % |
| Buxoro tumani | 12,5 % | Buxoro shahri | 2,3 % |
| Kogon tumani | 11,0 % | Qorovulbozor tumani | 3,0 % |
| Shofirkon tumani | 10,2 % | Peshku tumani | 5,9 % |



# Sut

**Hajmi, ming t.**




**O'sish sur'ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**









Xo'jalik toifalari orasida sut yetishtirishning eng katta hajmi 190,7 ming t. yoki umumiy yetishtirish hajmidan 90,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etildi.

2024- yilning yanvar- mart oylari yakunlari bo'yicha eng kam hajm 3,2 ming t. yoki umumiy yetishtirish hajmidan 1,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda kuzatildi.

2023- yilga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda, fermer xo'jaliklarida 116,4 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 221,1 % o'sish kuzatildi.



# Hududlar bo‘yicha sut yetishtirish

hajmi, ming tonna | Viloyatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi






| Yuqori ulushga ega hududlar | | Past ulushga ega hududlar | |
|---|---|---|---|
| Jondor tumani | **13,6** % | Kogon shahri | **0,1** % |
| Buxoro tumani | **12,1** % | Buxoro shahri | **0,6** % |
| Shofirkon tumani | **11,1** % | Qorovulbozor tumani | **1,6** % |
| G‘ijduvon tumani | **10,7** % | Kogon tumani | **5,2** % |



# Tuxum

**Hajmi, mln. dona**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**







Boshqa toifadagi xo‘jaliklarga nisbatan taqqoslanganda, tuxum yetishtirishning eng katta hajmi 39,2 mln. dona yoki umumiy yetishtirish hajmidan 43,6 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida qayd etildi.

2024- yilning yanvar- mart oylarida, yetishtirishning eng kam hajmi 20,8 mln. dona yoki umumiy yetishtirish hajmidan 23,1 % i fermer xo‘jaliklarida kuzatildi.

2023- yilga nisbatan, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 0,4 %, fermer xo‘jaliklarda 24,3 % va qishloq xo‘jaligini amalga oshiruvchi tashkilotlar 4,4 % ga o‘sish kuzatildi.



# Hududlar bo‘yicha tuxum yetishtirish

hajmi, mln. dona

Viloyatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi






| Yuqori ulushga ega hududlar | | Past ulushga ega hududlar | |
|---|---|---|---|
| Jondor tumani | **28,5** % | Kogon shahri | **0,1** % |
| Kogon tumani | **22,0** % | Buxoro shahri | **1,7** % |
| Buxoro tumani | **8,3** % | Qorovulbozor tumani | **2,4** % |
| Qorako‘l tumani | **8,2** % | Shofirkon tumani | **3,4** % |



# Baliq

**Hajmi, t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ovlangan baliqning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**







Baliq ovlash ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilish jarayonida, ovlangan baliqlar hajmining asosiy qismi 451,7 t. yoki umumiy ovlangan hajmidan 56,8 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda qayd etildi.

2024- yilning yanvar - mart oylari natijalari bo‘yicha baliq ovlashning eng kam hajmi 111,0 t. yoki umumiy ovlangan hajmidan 13,9 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida kuzatildi.

2023- yilga nisbatan, fermer xo‘jaliklarida 12,7 %, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 3,7 % va qishloq xo‘jaligini amalga oshiruvchi tashkilotlar 61,6 % ga kamayish kuzatildi.



# Hududlar bo‘yicha ovlangan baliqlar

**hajmi, tonna** | **Viloyatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi**






| Yuqori ulushga ega hududlar | | Past ulushga ega hududlar | |
|---|---|---|---|
| Olot tumani | **20,9** % | Kogon tumani | **1,5** % |
| Jondor tumani | **17,0** % | Qorovulbozor tumani | **2,4** % |
| Romitan tumani | **16,6** % | Shofirkon tumani | **2,9** % |
| Qorako‘l tumani | **10,7** % | Vobkent tumani | **4,2** % |





# Chorva mollari va parrandalar bosh soni, ming bosh




2024– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 7,9 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga, 90,4 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 1,7 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 16,2 % i fermer xo‘jaliklariga, 76,9 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 6,9 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi, shunga mos ravishda otlarning umumiy sonidan 40,9 % i fermer xo‘jaliklariga, 39,5 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 19,6 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi, shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 25,0 % i fermer xo‘jaliklariga, 37,8 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 37,2 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

2024– yilning 1 – aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 345,0 mingtaga yetdi.

2023– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 32,9 mingtaga (2,5 %) ko‘paydi.

## Yirik shoxli qoramollar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Jami bosh soning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024– yilning 1 – aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 90,4 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



# Yirik shoxli qoramollar




| **Yuqori ulushga ega tumanlar** | |
|---|---|
| G‘ijduvon tumani | **12,3 %** |
| Qorako‘l tumani | **11,5 %** |
| Shofirkon tumani | **11,0 %** |
| Jondor tumani | **10,2 %** |

| **Past ulushga ega hududlar** | |
|---|---|
| Kogon shahar | **0,1 %** |
| Buxoro shahar | **0,5 %** |
| Qorovulbozor tumani | **1,7 %** |
| Kogon tumani | **6,3 %** |

2024– yilning 1 – aprel holatiga ko'ra, sigirlarning umumiy bosh soni 438,1 mingtaga yetdi.

2023– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni – 12,7 mingtaga (3,0 %) ko'paydi.

## Sigirlar

**Soni, ming bosh**




**O'sish sur'ati**




**Jami bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**






2024– yilning 1 – aprel holatiga ko'ra, sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, jami sigirlarning 89,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelmoqda.



# Sigirlar bosh soni




**Yuqori ulushga ega tumanlar**

| | |
|---|---|
| Qorako‘l tumani | **14,5 %** |
| G‘ijduvon tumani | **12,4 %** |
| Jondor tumani | **10,4 %** |
| Shofirkon tumani | **9,9 %** |

**Past ulushga ega hududlar**

| | |
|---|---|
| Kogon shahar | **0,1 %** |
| Buxoro shahar | **0,5 %** |
| Qorovulbozor tumani | **1,9 %** |
| Olot tumani | **7,6 %** |

2024– yilning 1 – aprel holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 2 416,2 mingtaga yetdi.

2023– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni – 77,1 mingtaga (3,3 %) ko‘paydi.

## Qo‘y va echkilar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Jami bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**









2024– yilning 1 – aprel holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 76,9 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelmoqda.



# Qo‘y va echkilar

bosh son, ming bosh — Viloyatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi




**Yuqori ulushga ega tumanlar**

| | |
|---|---|
| Jondor tumani | **14,4 %** |
| G‘ijduvon tumani | **12,8 %** |
| Qorako‘l tumani | **12,2 %** |
| Peshku tumani | **10,4 %** |

**Past ulushga ega hududlar**

| | |
|---|---|
| Kogon shahar | **0,1 %** |
| Buxoro shahar | **0,7 %** |
| Kogon tumani | **3,7 %** |
| Vobkent tumani | **4,8 %** |

2024– yilning 1 – aprel holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 7 490 taga yetdi.

2023– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni – 349 taga (4,9 %) ko‘paydi.

# Otlar

**Soni, bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Jami bosh soning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**






2024– yilning 1 – aprel holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar, xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, jami otlarning 40,9 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ta’kidlash lozim.



# Otlar bosh soni

bosh son, bosh

Viloyatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi




**Yuqori ulushga ega tumanlar**

| | |
|---|---|
| Romitan tumani | **17,5 %** |
| G‘ijduvon tumani | **13,7 %** |
| Peshku tumani | **13,3 %** |
| Jondor tumani | **11,8 %** |

**Past ulushga ega hududlar**

| | |
|---|---|
| Buxoro shahar | **1,1 %** |
| Kogon tumani | **2,8 %** |
| Olot tumani | **2,9 %** |
| Vobkent tumani | **4,5 %** |

2024– yilning 1 – aprel holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 7 145,8 mingtaga yetdi.

2023– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 816,0 mingtaga (12,9 %) ko‘paydi.

## Parrandalar

Soni, ming bosh




O‘sish sur’ati




Jami bosh soninig xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi






2024– yilning 1 – aprel holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 37,8 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim.



# Parrandalar




**Yuqori ulushga ega tumanlar**

| | |
|---|---|
| Jondor tumani | **28,8 %** |
| G‘ijduvon tumani | **13,7 %** |
| Kogon tumani | **10,9 %** |
| Buxoro tumani | **10,2 %** |

**Past ulushga ega hududlar**

| | |
|---|---|
| Kogon shahar | **0,3 %** |
| Buxoro shahar | **2,0 %** |
| Peshku tumani | **2,6 %** |
| Qorovulbozor tumani | **3,5 %** |

Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistikasi bo‘limi



• 65- 223-44-45